



## ISHSIZLIK DAVRIDA BOZOR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH

*S.B.O'ktamova – iqtidorli talaba.*

*Y.P.Urunbayeva – (PhD) i.f.f.d., dotsent.*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ishsizlikning turlari, uning sabab va oqibatlari hamda uni kamaytirish yo'llari ko'rib chiqilgan bo'lib, davlat siyosati va bozor mexanizmlarining ish o'rinalarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mehnat bozorining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy sikllar, davriy rivojlanish, ishsizlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy inqiroz, turg'unlik, mehnat bozori, ish o'rinalari, davlat siyosati, bozor mexanizmlari, iqtisodiy barqarorlik, strukturaviy ishsizlik, tsiklik ishsizlik, friksion ishsizlik, mehnat samaradorligi.

**Abstract:** This article examines the types of unemployment, its causes and consequences, and ways to reduce it, and analyzes the role of public policy and market mechanisms in creating jobs and ensuring economic stability. The results of the study are important for shaping economic policy and serve to increase the efficiency of the labor market.

**Key words:** Market economy, economic cycles, cyclical development, unemployment, entrepreneurship, economic crisis, stagnation, labor market, jobs, public policy, market mechanisms, economic stability, structural unemployment, cyclical unemployment, frictional unemployment, labor productivity.

**Аннотация:** В статье рассматриваются виды безработицы, ее причины и последствия, пути ее сокращения, анализируется роль государственной политики и рыночных механизмов в создании рабочих мест и обеспечении экономической стабильности. Результаты исследований важны



для формирования экономической политики и служат повышению эффективности рынка труда.

**Ключевые слова:** Рыночная экономика, экономические циклы, циклическое развитие, безработица, предпринимательство, экономический кризис, стагнация, рынок труда, рабочие места, государственная политика, рыночные механизмы, экономическая стабильность, структурная безработица, циклическая безработица, фрикционная безработица, производительность труда.

**Kirish va mavzuning dolzarbliji.** Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o‘rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha malakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish, bandlilik va inflatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o‘tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi. Iqtisodiy davrlar to‘rtta bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo‘lib, u «cho‘qqi» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to‘liq bandlik, ishlab chiqarish to‘la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o‘sish holati kuzatiladi.

Keyingi bosqich pasayish (retsessiya) bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o‘sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina bahoning o‘sish darajasi sustlashishi mumkin. Pasayishning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg‘unlik davri boshlanadi. Ko‘tarilish bosqichida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish va to‘liq bandlik darajasiga erishiladi.

Ishsizlik esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotda resurslarning to‘liq va samarali ishlatilmasligi, ijtimoiy va psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Ishsizlar sonining ko‘payishi iqtisodiy tizimda resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga va



jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning o‘zaro ta’siri Phillips egri chizig‘i orqali aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, iqtisodiy siyosatni samarali amalga oshirishda bu munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Ishsizlik darajasi va inflatsiya sur’atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$Y_h - Y_p$$

$$\Pi = \pi_{kut} + f \quad (-----) + \epsilon$$

$$Y_p$$

Bu yerda  $\pi$  – inflatsyaning haqiqiy darajasi;  $\pi_{kut}$  – inflatsyaning kutilayotgan darajasi;

$$Y_h - Y_p$$

$$F (-----) – talab inflatsiyasi;$$

$$Y_p$$

$F$  – Fillips egri chizig‘ining og‘ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;  $E$  – tashqi baho shoki (taklif inflatsiyasi).

Oukan qonuniga ko‘ra YaIMning uzilishi, ya’ni  $(Y_h - Y_p) / Y_p$  miqdor davriy ishsizlikning o‘zgarishiga bog‘liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig‘ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\Pi = \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \epsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko‘rinib turibdiki, haqiqiy inflatsiya darajasi miqdori kutilayotgan nflyasiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to‘g‘ri bog‘liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog‘likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig‘iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** 2008 yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi dunyodagi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda makroiqtisodiy berqarorlikni keltirib chiqardi. «Bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergen tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning



likvidlik, ya’ni to’lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.»

Dastlab AQSh ipoteka bozorlarida namoyon bo‘lgan mazkur inqiroz etarlicha to’lov layoqatiga ega bo‘lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo‘lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro‘y berdi.

AQSh iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to‘yindi va bu Federal zahira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o‘zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004-2006 yillarda Federal zahira tizimi foiz stavkalarni 6,25% gacha ko‘tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo‘yicha qarzdorlar to‘loving qisqarishiga olib keldi. Pirovard natijada 2007 yil boshida AQShda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog‘liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko‘chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko‘ra to‘lovlarni to‘lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to’lov qobiliyatiga ega bo‘lmagan mijozlarning ko‘chmas mulkclarini qayta sotuvga qo‘yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko‘payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Keynschilik nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy sikllar va ishsizlik davlatning faolligi bilan chambarchas bog‘liq. J. M. Keyns o‘zining “Umumiy bandlik, foiz va pul nazariyasi” asarida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarurligini asoslab bergen. Unga ko‘ra, davlat investitsiyalarni oshirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali ishsizlikni kamaytirishi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy sikllarni o‘rganishda monetaristlar, jumladan, M. Fridman va yangi klassik iqtisodchilar muhim hissa qo‘shdilar. Monetaristlar inflyatsiya va pul-kredit siyosatining ishsizlik darajasiga ta’sirini o‘rganganlar va tabiiy ishsizlik darajasi tushunchasini ilgari surganlar.



Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ish kuchi migratsiyasi, avtomatlashtirish, texnologik rivojlanish va globalizatsiyaning ishsizlik darajasiga ta'siri tahlil qilinmoqda. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Jahon Bankining tadqiqotlarida bozor iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarida ishsizlikni kamaytirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi va ishsizlik o'rtaqidagi bog'liqlikni o'rghanish uchun turli tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqotda nazariy, empirik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil natijalari.** Makroiqtisodiy beqarorlik tufayli, iqtisodiy pasayish davrida mamlakat o'z iqtisodiy potensialini to'liq ishga solmasdan, yaratilgan haqiqiy YaIM hajmi (Yh) potensial YaIM (Yp) hajmidan ortda qoladi. Ya'ni YaIMning uzilishi (YuZ) ro'y beradi.

$$Y_{uz} = (Y_h - Y_p) / Y_p \times 100$$

Potensial YaIM deganda mamlakatdagi ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalilanigan sharoitda mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi tushuniladi.

Ihsizlik darajasi va YaIM uzilishi o'rtaqidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun, OUKEN qonuni deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, ya'ni davriy ishsizlik 1 foizni tashkil etsa milliy iqtisodiyot YaIMni ikki yarim foizga kam yaratadi. YaIMning pastroq darajasi o'z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo'lishini va iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlari qisqarishini bildiradi.

Ouken qonuni ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda  $\beta$  koefitsienti deb atalgan bu koefitsient miqdori 2 foizdan 3 foiz oralig'ida deb hisoblanadi. Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$YuZ = -2,5 [ u - u^* ]$$

Bu yerda:  $u^*$  – ishsizlikning tabiiy darajasi;



U – ishsizlikning haqiqiy darajasi.

YaIM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken qonunini formulasini umumlashtirib quyidagi formulani olamiz:

$$(Y_h - Y_p/Y_p) \times 100 = -\beta [u - u^*]$$

**Xulosa va amaliyotga takliflar.** Ishsizlik mehnat bozorining asosiy muammolaridan biri bo‘lib, biror bir mamlakat iqtisodiyotning bu “nuqsoni”dan hali qutulganicha yo‘q.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkichning yillar bo‘yicha o‘zgarishi uning bir me’yorda bo‘Imaganini ko‘rsatadi. Jumladan, 2000-2006 yillarda mamlakatimizda ishsizlik darajasi 0,3-0,4 foizni tashkil etgan. Lekin, 2007 yildan boshlab real ishsizlik darajasi o‘rtacha 5 foiz atrofida bo‘lmoqda. Bu holatni shunday izohlashimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida 2007 yilning 1 iyuligacha amal qilib kelgan mehnat resurslari balansi shakli Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 yanvardagi “Aholini ish bilan bandligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 42 – sonli Qarori bilan tasdiqlangan metodika asosida hisoblab kelinar edi. Shundan kelib chiqqan holda 2007 yil 24 mayda Vazirlar Mahkamasining “Ishga joylashtirishga muhtoj ish bilan band bo‘Imagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 106 – sonli qarori qabul qilindi va unga muvofiq joriy yilning 1 iyulidan boshlab “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘Imagan aholini hududlar bo‘yicha hisoblab chiqish” metodikasi amaliyotga tatbiq etildi. Metodika Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan belgilangan normalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasining ish bilan ta’minalash va mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi.

Aholi bandligini ta’minalash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2016 yilda mamlakatimizda 800 mingga yaqin ish o‘rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e’tiborlidir. 2008-2016 yillarda



O‘zbekiston Respublikasida ish bilan band bo‘lgan aholi soni 2263,0 ming kishiga yoki 20,5 foizga o‘sigan.Bozor islohotlari sharoitida mehnat resurslarining ish bilan bandligini ta’minlash muammolari dolzARB tus oladi.

**Takliflar:**Ishsizlik darajasini kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

1.Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish – Ish beruvchilar talab qiladigan zamonaviy kasblar bo‘yicha ta’lim dasturlarini kengaytirish.

2.Yangi ish o‘rinlarini yaratish – Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kichik va o‘rta biznes rivojlanishini rag‘batlantirish.

3.Texnologik innovatsiyalarni qo‘llash – Raqamli iqtisodiyot va avtomatlashtirish jarayonlarida yangi mehnat bozori yo‘nalishlarini rivojlantirish.

4.Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish – Investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda ish o‘rinlarini ko‘paytirish.

5.Masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish – Frilanserlik va onlayn ishslash imkoniyatlarini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, ishsizlik darjasini sezilarli darajada kamayib, mehnat bozori barqaror rivojlanishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. PIRNAZAROVNA, U. Y., & ISMATJONOVNA, U. M. (2023). SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF THE SERVICE SECTOR. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(6), 1-6.
2. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2023). THE ROLE OF THE SERVICE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, ECONOMICS AND BANKING*, 12, 20-25.
3. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2023). SERVICE PROVISION AND STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION; INTERDEPENDENCE. *INFORMATION HORIZONS: AMERICAN JOURNAL OF LIBRARY AND INFORMATION SCIENCE INNOVATION* (2993-2777), 1(10), 25-27.



4. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2023). FACTORS AFFECTING THE LEVEL OF POPULATION. *MIASTO PRZYSZŁOŚCI*, 34, 180-186.
5. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2024). THE THEORETICAL FRAMEWORK FOR MUSEUM TOURISM DEVELOPMENT. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS (IJSR) INDEXING*, 4(2), 355-358.
6. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2024). ХИЗМАТ КҮРСАТИШ СОҲАСИНИГ АҲАМИЯТИ. *USTOZLAR UCHUN*, 56(1), 186-190.
7. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2024). ХИЗМАТ КҮРСАТИШ СОҲАСИНИ-АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛИ. *TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI*, 19(1), 166-171.
8. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ-ТАРАҚҚИЁТИНИНГ БОШ ОМИЛИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(3), 57-60.
9. УРУНБАЕВА, Ю. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ-МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. *IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL*, 2(2), 644-649.
10. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2016). СФЕРЫ УСЛУГ И УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. IN *НАУКА СЕГОДНЯ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (PP. 97-99).
11. УРАЛОВ, Ш. А., НУРМАТОВА, С. А., & УРУНБАЕВА, Ю. П. (2020). ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ, ОСНОВАННОЙ НА РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. IN *СТУДЕНТ ГОДА 2020* (PP. 105-112).
12. УРУНБАЕВА, Ю., & АРТИКОВ, З. (2021). НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. *IN LIBRARY*, 21(2), 92-94.
13. URUMBAEVA, Y. P., & RAXIMBERDIYEV, T. (2023). COMPREHENSIVE ANALYSIS OF POPULATION INCOME LEVELS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(11), 8-14.



14. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2024). LABOR RESOURCES-INVALUABLE ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS (IJSR) INDEXING*, 4(2), 443-446.
15. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2016). УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЭТО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА. *ИН НАУКА СЕГОДНЯ: ФАКТЫ, ТЕНДЕНЦИИ, ПРОГНОЗЫ* (РР. 58-60).
16. УРУНБАЕВА, Ю. (2016). РОЛЬ СФЕРЫ УСЛУГ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СТРАНЫ. *ЭКОНОМИКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ*, (4), 38-46.
17. УРУНБАЕВА, Ю. (2016). ВОЗМОЖНОСТИ УВЕЛИЧЕНИЯ СВОБОДНОГО ВРЕМЕНИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ. *ЭКОНОМИКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ*, (5), 88-93.
18. УРУНБАЕВА, Ю., & УРАЛОВ, Ш. (2020). ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ. *IN LIBRARY*, 20(4), 116-123.
19. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2024). THE IMPACT OF MUSEUM TOURISM ON ENHANCING QUALITY OF LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS (IJSR) INDEXING*, 4(2), 359-363.
20. УРИНБАЕВА, Ю. П. (2016). ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ МАЛОГО И ЧАСТНОГО БИЗНЕСА. *НАУЧНЫЙ АЛЬМАНАХ*, (11-1), 321-326.